

Til faqat gaplashish uchun berilmagan




Til yordamida ta'mlarni sezamiz, ovqatni yaxshilab chaynash uchun uni og'zimizda aylantiramiz.



Insonning tili to'rtta asosiy ta'mni sezadi: shirin, sho'r, nordon va achchiq. Yaqinda olimlar bunga yana bir ta'mni qo'shishdi. Bu – go'shtning, oqsilli yegulikning ta'mi bo'lib, uning nomi **umami** ekan.




Mana bu yeguliklarning nomini va ularning ta'mi qandayligini ayting: shirin, nordon, sho'r yoki achchiqmi?





Oddiy suvning ajoyib xususiyatlari bor. Agar uni achchiq yoki nordon ovqatdan keyin ichsangiz, shirin tuyuladi. Tuz yoki shakardan keyin ichsangiz, achchiqroq tuyuladi.



Ovqatning mazasi faqat uning ta'mi emas, balki hidi, harorati va boshqa holatlariga bog'liq.

Tajriba qilib ko'ring: barmoqlar bilan burningizni berkitib, ko'zingizni yuming. Endi yeguliklardan qay birini ta'miga qarab aytib bera olasiz?



Tajriba. Mavzu: "Ovqat chaynayotganda tilning qanday ishlashini o'rganing".

1. Olma yoki nondan bir tishlab, shoshilmay chaynashni boshlang. Ovqatni qanday chaynayotganingizni diqqat bilan kuzating.
 - a) Ovqat chaynayotganda tish nima ish qilar ekan?
 - b) Ovqat chaynayotganda til nima ish qilar ekan?
2. Xulosa qiling.





Til yordamida har xil tovushlar chiqarishimiz mumkin. Qanday tovush chiqishi tilning qanday harakat qilishiga bog'liq.



Tajriba. Mavzu: "Har xil tovushlarni talaffuz qilish nimaga bog'liqligini aniqlang".

1. Ko'zgu oldiga keling.
2. Unli tovushlarni talaffuz qiling: A, O, U, I, E, O'.
3. Har bir tovushni chiqarishda tilingiz qanday turibdi? Bu tovushlarni chiqarishda qaysi a'zolar qatnashyapti?
4. Undosh tovushlarni talaffuz qiling: D, T.
5. Bu tovushlarni chiqarishda tilingiz qanday harakat qildi? Bu tovushlarning farqi nimada?
6. Yana qaysi tovushlarni talaffuz qilganda til, tish va lablar bir xil holatda turadi?
7. Xulosa qiling.



Bu so'zni Jasurning og'ziga qarab o'qib ko'ring-chi. Jasur qaysi so'zni aytyapti?



O



I



A



Daftarga sho'r, nordon, shirin va achchiq yeguliklarning nomlarini yozib qo'ying.